



ANDIJON VILOYATIDA DORIVOR O'SIMLIKLAR MAXSULOTIGA EHTIYOJNING ORTIB BORISHI

Ikromaliyeva Gulhayo

Andijon davlat universiteti Biologiya fakulteti 2-kura Magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7588354>

ARTICLE INFO

Received: 20th January 2023

Accepted: 30th January 2023

Online: 31th January 2023

KEY WORDS

O'simlik dunyosi, dorivor o'simliklar, inplantatsiya, populyatsiya, mineral tuz, uglevod.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda dorivor o'simliklar sohasiga qaratilayotgan e'tibor hamda shu dorivor o'simliklarni yurtimizdagi ehtiyojlarini ortib borishi, xususan Andijon viloyatidagi ehtiyojlarni ortib borishi haqida so'z yuritiladi.

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh vazifasi xalqimizni turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish hisoblanadi. Iqtisodiy sohada o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va ularni turlarini ko'paytirish zamon talabi hisoblanadi. Ayniqsa sanoat va qishloq xo'jaligi uchun kerakli bolgan dorivor o'simliklarni topib ularni yangi turlarini intraduksiya qilish foydalanish va yetishtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunga misol qilib yurtboshimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 20-martdagi, PQ-251-sonli "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etishga oid chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorini misol qilib olishimiz mumkun. SHu qarorga muvofiq Andijon viloyatida ham dorivor o'simliklarni yetishtirish va inplantatsiya qilish uchun ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Buni amaliy misoli sifatida Marhamat tumanida amalga oshilayotga tadqiqotlarni aytishimiz mumkun

Insonlar o'simliklar dunyosining 350 mingga yaqin turi ichida atigi yuzdan bir qismidan foydalanadi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ekspertlarining tahlillariga ko'ra, yer shari aholisi soni 2050 yilga kelib 10 milliardga yetadi. Aholi sonining ortishi bilan sifatli ovqatlanish muammosi yanada dolzarb bo'lmoqda. Bu muammoni yechishda biokimyoviy tarkibga ega bo'lgan, vitamin, aminokislota, mineral tuz, uglevod va boshqa qimmatli moddalarning juda muhim manbai bo'lgan sabzavotlar katta rol o'ynaydi. Oziq-ovqat ratsionida zarur bo'lgan sifat xilma-xilligining yo'qligi ko'pincha inson organizmidagi salbiy o'zgarishlar, moddalar almashinuvidagi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Bu esa ko'plab kasalliklarning ko'payishiga olib keladi. Shuning uchun har qanday mintaqaning o'simliklar genofondidan foydalanish zarur. Xususan, yangi o'simliklarni introduksiya qilish xuddi avvalgidek, ishlab chiqarishga joriy qilishda muhim ahamiyatga egadir.



SHu sababli O'zbekiston dorivor o'simliklarining muayyan hududda tarixan tarkib topgan taksonlari majmui resurslarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarbdir.

O'zbekistoning o'simlik olami 4000 tadan ortiq o'simlik turlarini o'z ichiga oladi. O'simliklar turlarining 20% qismi – endemik turlardir (boshqa hech qayerda uchramaydi); ularning ko'pchilik qismi tog'larda o'sadi. Dashtlar va sahrolarning o'simlik olami asosan o'ziga xos butalardan tarkib topgan. Pasttekisliklarda daraxt, buta, o'tsimon o'simliklar kuchli rivojlangan. To'qaylar uchun qamish va qandim o'simliklari xosdir.

Hozirgi kunda O'zbekiston yoki O'rta Osiyoning boshqa mamlakatlarida kamyob, yo'qolib borayotgan, endem va muhofaza chora-tadbirlariga muhtoj O'zbekistonda bu boradagi botanik tadqiqotlar yaqindagina boshlandi. 2012 yildan O'zR FA "O'simlik va hayvonot olami genofondi" institutining yetakchi ilmiy xodimi biologiya fanlari doktori K.Sh.Tojiboev rahbarligida Farg'ona vodiysining botanik olimlari bu boradagi ilk tadqiqotlarni boshlashgan. Tadqiqot hududi sifatida esa Farg'ona vodiysining O'zbekiston Respublikasiga tegishli bo'lgan qismidagi tabiiy landshaftlar tanlangan. Tadqiqot olib boriladigan hudud bejiz emas. Chunki hozirgi kunda respublikamizning 5-6% maydonlari qo'riqxonalar uchun ajratilgan. Aholining sonining ko'pligi va tabiiy ekosistemalarning umumiy maydoni juda kam bo'lgan Farg'ona vodiysida qo'riqxonalar umuman yo'q. Bu holat mavjud tabiiy maydonlarda o'simliklar tarkibini o'rganish va antropogen omillar ta'siri kuchli tarzda namoyon bo'layotgan hududlarda zamonaviy botanik tadqiqotlarni olib borish lozimligini belgilaydi. bo'lgan o'simlik turlarini saqlab qolishning yangi usullari va mexanizmlari ustida yangi zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarning bir qismi ayrim tabiiy-geografik hududlarning floristik tarkibini o'rganish, floralarning yangi zamonaviy konspektini tuzishga qaratilgan bo'lsa, qolgan qismi flora tarkibidagi kamyob va yo'qolib borayotgan turlar populyatsiyalarining zamonaviy holatini aniqlashga va ularni muhofaza etish chora tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan. O'zbekiston florasida 4500 ga yaqin yuksak o'simliklarning turlari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi foydali o'simliklarga kiradi, ya'ni bugungi kunda qandaydir maqsadda qo'llaniladi. Masalan, oziq ovqat o'simliklari 42 turni, ozuqabop (yem hashak) o'simliklar 107 turni, dorivor o'simliklar 113 turni, alkaloid saqlovchi o'simliklar 76 turni, caponin saqlovchi o'simliklar 15 turni, efir moyli o'simliklar 53 turni, yog' to'plovchi o'simliklar 56 turni, tanid saqlovchi o'simliklar 59 turni, bo'yoqbop o'simliklar 58 turni, kamed saqlovchi o'simliklar 9 turni, smola saqlovchi o'simliklar 9 turni, mum saqlovchi o'simliklar 5 turni, kauchuk saqlovchi o'simliklar 4 turni, sellyuloza qog'ozbop o'simliklar 14 turni, yog'och beruvchi o'simliklar 16 turni, ziynat (bezak) uchun foydalaniladigan o'simliklar 30 turni, asal shira beruvchi o'simliklar 115 turni o'z ichiga oladi. Bu o'simliklar to'g'risida ma'lumot berish orqali magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar hamda keng omma ongida betakror, go'zal diyorumizning nabotot olamiga nisbatan cheksiz muhabbat hissini uyg'otish va ularni o'zimizning jonajon tabiatimizni ko'z qorachig'idek asrab avaylaydigan barkamol inson qilib tarbiyalashdir.

Dorivor o'simliklar mahsulotiga ehtiyoj o'sib borishi natijasida ularning xomashyosini tayyorlash miqdori ham ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida qator dorivor o'simliklarning ko'p o'sadigan joyida kamayib ketishi, natijada ularning xom-ashyosini tayyorlanishini keskin chegaralanishi yoki butunlay to'xtatilishiga olib kelishi mumkin. SHularni inobatga olib sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida dorivor o'simliklarni yetishtirish, xamda



ularning xom-ashyosi va sifatiga o'g'itlarni ta'sirini o'rganish hozirgi davrning muhim masalalaridan hisoblanadi.

References:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyayevning 2020yil 20-martdagi, PQ-251- sonli Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etishga oid chora tadbirlar to'g'risidagi qarori
2. Dr. D.K. Patel. A Digital Herbarium Book-I on.//Medicinal and Aromatic Plants. 2015.3-65 pp.
3. Kayimov A. O'rmonchilikda ilmiy izlanish asoslari. Ma'ruza matnlari. T. 2004.
4. Metodicheskiye ukazaniya po izucheniyu pochv v agrolesomeliorativnykh issledovaniyax. Volgograd, 1971.
5. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi xukumat portali
6. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi.